



**INGLIZ TILIDA O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA  
MATNLARNING O‘RNI, MATN TANLASH VA TUZISH MEZONLARI**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.069>

**Soliyev Umidjon Yulchivoyevich**

*Namangan davlat chet tillari instituti katta o‘qituvchisi, PhD*

*E-mail: umidjon.soliyev.83@inbox.ru*

*+99894-216-84-24*

*ORCID iD: 0009-0009-7229-3926*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda matn tanlash va matn tuzish mezonlarining nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. O‘qish kompetensiyasining tarkibiy qismlari, matnning lingvistik, psixolingvistik va didaktik xususiyatlari, shuningdek, o‘quvchilarning yosh va til darajasiga mos matnlar bilan ishlash masalalari yoritiladi. Tadqiqotda zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar asosida samarali matn tanlash mezonlari tizimlashtiriladi hamda ularning o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish kompetensiyasi, matn tanlash, matn tuzish, lingvodidaktika, o‘qish strategiyalari, chet til o‘qitish.

**KIRISH.** Zamonaviy chet tilini o‘qitish metodikasida o‘qish kompetensiyasi yetakchi nutqiy kompetensiyalardan biri sifatida e‘tirof etiladi. O‘qish til o‘rganish jarayonida nafaqat yozma nutqni tushunish vositasi, balki o‘quvchilarning umumiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda asosiy mexanizm hisoblanadi. Xususan, o‘qish jarayonida o‘quvchi yangi leksik birliklarni kontekstda o‘zlashtiradi, grammatik tuzilmalarni tabiiy nutq muhitida anglaydi hamda mantiqiy-tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, o‘qish kompetensiyasi boshqa nutq turlari – tinglab tushunish, gapirish va yozish bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.

Chet tillarni bilishning umumiyevropa kompetensiyalari (CEFR) hujjatlarida o‘qish kompetensiyasi shaxsning yozma matnlarni tushunish, tahlil qilish va ulardan kommunikativ maqsadlarda foydalanish kompetensiyasi sifatida talqin etiladi. Ushbu hujjatda ta’kidlanishicha, samarali o‘qish ko‘nikmasi o‘quvchining akademik muvaffaqiyati va mustaqil ta’lim olish salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir [10]. Shuningdek, Grabe va Stoller o‘qishni ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonining markaziy komponenti

sifatida baholab, o‘qish orqali leksik va grammatik kompetensiya tabiiy ravishda shakllanishini alohida ta’kidlaydilar [10].

O‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lgan o‘quv matnlarining sifati va didaktik mosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Harmer fikriga ko‘ra, noto‘g‘ri tanlangan matnlar o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi, ularning motivatsiyasini pasaytirishi va o‘qish jarayonini sun‘iylashtirishi mumkin. Aksincha, o‘quvchilarning til darajasi, yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos tanlangan matnlar o‘qish faoliyatini faollashtiradi va o‘rganilayotgan tilga nisbatan barqaror qiziqishni shakllantiradi.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganuvchilarning o‘qishdagi qiyinchiliklari ko‘pincha matnning haddan tashqari murakkabligi, mavzuning o‘quvchi uchun begonaligi yoki matndagi leksik va grammatik birliklarning me’yoridan ortiq darajada berilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Richards va Rodgers ta’kidlaganidek, o‘quv materiali kommunikativ maqsadlarga xizmat qilmasa va real nutqiy vaziyatlar bilan bog‘lanmasa, o‘qish jarayoni mexanik tus oladi hamda kutilgan natijani bermaydi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘qish kompetensiyasini samarali rivojlantirishda matn tanlash va matn tuzish mezonlarini ilmiy asosda belgilash dolzarb metodik masala hisoblanadi. Matnlar lingvistik jihatdan soddadan murakkabga tamoyili asosida tuzilishi, mazmunan dolzarb va madaniy jihatdan mos bo‘lishi, shuningdek, o‘quvchilarda turli o‘qish strategiyalarini (asosiy g‘oyani aniqlash, xulosa chiqarish, taxmin qilish) shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Demak, matn tanlash va matn tuzish mezonlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda ularni amaliyotga tatbiq etish zamonaviy chet tilini o‘qitish metodikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Tilning eng katta birligi matn hisoblanadi. Shuni qayd etish kerakki, matnni bir butun birlik sifatida o‘rganish rus tilshunoslari tomonidan asrimizning 30-yillarida boshlangan edi. Fikrimizning dalili sifatida taniqli rus olimlari A.V.Peshkovskiyning “Русский синтаксис в научном освещении” (1934), V.V.Vinogradovning “О художественной прозе” (1930), L.A.Bulaxovskiyning “Курс русского литературного языка” (1952) va boshqalarning ishlarini keltirish mumkin. Bu olimlar o‘z asarlarida matnning o‘ziga xos xususiyatlari, shaxs ma’nosini ifodalashi, matndagi shaxs ma’nosi bilan muallif shaxsi orasidagi bog‘liqlik, uzviylik borligini isbotlashga ko‘p kuch sarflashdi. Bu asarlar faqat rus tilshunosligida emas, balki umumiy tilshunoslik tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, hozirgi zamon tilshunosligining rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Matnning ta’rifi masalasiga kelsak, hozirgi kunda ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan yagona qoida yo‘q. Matnning ta’rifi matn ustida ishlayotgan olimning tilshunoslik sohasining qaysi yo‘nalishida (ya’ni fonetika-fonologiya, leksikologiya, sintaksis, semantika, generativ semantika va hokazo) ishlashiga bog‘liq. Masalan, A.Greymas matnni (diskursni) gaplarga

bo‘linadigan butunlik bo‘lsa-da, gaplarni bir-biriga bog‘lanib kelishining natijasi emas, deb ta’kidlaydi. Bundan matn birlamchi, dastlab matn yaratiladi, keyin esa tahlilchilar uni tashkil etuvchi bevosita ishtirokchilarga ajratishadi, degan ma’no kelib chiqadi.

P.Giro fikricha, matn yopiq o‘zaro bog‘langan birliklar butunligi, tuzilishi bo‘lib, bu butunlikni tashkil etuvchi ishoralar stilistik taasurotni ifodalash maqsadida bir-biri bilan munosabatga kirishib, yagona sistemani tashkil qiladi.

Matn ta’rifi matnga xos xususiyatlarni aniqlash bilan bog‘liq. Hozir matnning ana shunday xususiyatlaridan bir nechtasi aniqlangan.

S.Todorovning fikricha, har qanday matn jarayon, sintaktik va semantik xususiyatlarga ega. Matnlarning aniq gaplardan tashkil topishi – uning jarayon ekanini tasdiqlaydi. Matnni tashkil etuvchi qismlar orasidagi o‘zaro bog‘lanish uning sintaktik xususiyatini va nihoyat matnning mazmuni – uning semantikasini belgilaydi [8].

N. Enkvist ham matnning uch lingvistik parametrini mavzu (topic), fokus (Focus) va bog‘lanish (linkage)ni aniqladi. Mavzu – matnning asosiy mazmuni, fokus – matnni tashkil etuvchi birlik (so‘z, so‘z birikmasi, gap va hokazo), bog‘lanish esa matnning tashkil etuvchi qismlari orasidagi bog‘lanish vositalaridir [9].

Bundan tashqari bir qancha o‘zbek olimlari matn, uning turlari haqida fikr yuritganlar. J.J.Jalolovning takidlashicha “Ta’limshunoslikda matn nomi bilan axborot olish va berishga mo‘ljallangan nutqiy (yoki ramziy va tasviriy) parcha yuritiladi. Binobarin, bir va undan ortiq jumla, syujetli rasm, formula kabi turli soxada o‘qiladigan va axborot manbai hisoblanadigan o‘rganish- o‘rgatish ob’yekti ta’limiy matndir [2].

Matnlarni tanlash va tuzish o‘ta dolzarb metodik masala. Tayyor matnlarni saralash borasida muxtasar to‘xtab o‘tildi. “Tuzish” terminining ma’noviy doirasi turli-tuman talqinlarga sabab bo‘lmoqda. Awalo, tuzish va tanlash orasidagi farq aniqlanishi zarur. “Tanlash” deganda, mazmuni yozuvchi tomonidan shakllangan, til va hajm jihatidan muallim yoki darslik/o‘qish kitobi tuzuvchisi maktab sharoitiga moslashtirgan matnlarni saralash tushuniladi. Demak, asliyatdagi material yoki uning moslashtirilgan nusxasi o‘qishga taqdim etiladi.

“Tuzish” termini og‘zaki o‘rganilgan til materiali asosida va og‘zaki nutq mavzulari doirasida muallim yoki darslik/o‘qish kitobi muallifi tayyorlagan matnlarga taalluqlidir. Shu munosabat bilan metodikada “tuzilgan” va “tanlangan” matn tushunchalari istifoda qilinadi. Har ikkala toifadagi matnlar ham o‘qish uchun material vazifasini o‘taydi [1].

Mazkur tadqiqot o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda matn tanlash va matn tuzish mezonlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan bo‘lib, unda sifat tahliliga asoslangan kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil metodi yordamida o‘qish kompetensiyasi hamda matn tanlash va tuzish masalalariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar (CEFR, Harmer, Grabe, Richards va boshqalar) o‘rganildi. Taqqoshlama-tahliliy metod turli metodistlar tomonidan taklif etilgan mezonlarni solishtirish va umumlashtirishga xizmat qildi. Tizimli yondashuv matn tanlash va tuzish mezonlarini yagona lingvodidaktik tizim sifatida ko‘rib

chiqish imkonini berdi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv metodi asosida amaliyotda qo‘llanilayotgan o‘quv matnlarining o‘qish jarayoniga ta’siri va samaradorligi baholandi.

Tadqiqot obyekti sifatida chet tilini o‘qitishda foydalaniladigan o‘quv matnlari, predmeti sifatida esa o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi matn tanlash va matn tuzish mezonlari belgilandi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** O‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda matn tanlash jarayoni tizimli va ilmiy asoslangan bo‘lishi zarur. Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan nazariy tahlil va pedagogik kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, matn tanlash mezonlariga rioya qilinishi o‘quvchilarning matnni tushunish darajasi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, lingvistik va mazmuniy jihatdan mos tanlangan matnlar o‘quvchilarning o‘qish jarayonida kamroq qiyinchilikka duch kelishiga hamda o‘qish strategiyalarini samaraliroq qo‘llashiga imkon yaratadi.

**Matn tanlash mezonlari.** Tadqiqot natijalariga ko‘ra, lingvistik mezonlarga mos keladigan, ya’ni leksik va grammatik jihatdan o‘quvchilarning til darajasiga mos matnlar bilan ishlangan hollarda o‘quvchilar matn mazmunini tezroq idrok etgan va asosiy g‘oyani aniqlashda yuqori natija ko‘rsatgan. Aksincha, notanish so‘zlar miqdori me’yorida oshgan matnlar o‘qish jarayonini sekinlashtirgan va tushunish darajasini pasaytirgan.

Shuningdek, mazmuniy va mavzuviy mezonlarga rioya etilgan matnlar o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirgan. Pedagogik kuzatuvlar shuni tasdiqladiki, hayotiy va dolzarb mavzular asosida tanlangan matnlar muhokama qilish, fikr bildirish va xulosa chiqarishga undab, o‘qish kompetensiyasini kommunikativ kompetensiya bilan integratsiyalashga xizmat qilgan.

Yosh va psixologik moslik mezoni asosida tanlangan matnlar o‘quvchilarning kognitiv imkoniyatlariga mos kelib, ularning o‘qish jarayonida charchashini kamaytirgan. Bu esa o‘qish jarayonining samaradorligini oshirganligini ko‘rsatdi. Natijalar matn tanlashda mazkur mezonlarning e’tiborga olinishi o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishning muhim sharti ekanini tasdiqlaydi.

**Matn tuzish mezonlari va didaktik talablar.** Tadqiqot davomida olingan natijalar matn tuzish mezonlarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyatini chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko‘rsatdi. Xususan, metodik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan matnlar o‘quvchilarning o‘qish strategiyalarini ongli ravishda qo‘llashiga imkon bergan.

Mantiqiy izchillikka ega matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar matn tuzilishini tez anglagan, asosiy va ikkilamchi axborotni farqlashda kamroq qiyinchilikka duch kelgan. Bu holat Grabe va Stoller tomonidan ilgari surilgan o‘qish jarayonida matn strukturasi ahamiyati haqidagi qarashlarni tasdiqlaydi [6].

Axborot yuklamasining me’yoriyligi saqlangan matnlar o‘quvchilarning diqqatini matn mazmuniga jamlashga yordam bergan. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ortiqcha axborotdan holi, asosiy g‘oyasi aniq ifodalangan matnlar o‘qish jarayonini soddalashtirib, tushunishni osonlashtirgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, madaniy moslikka ega matnlar o‘quvchilarning matnga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirgan va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan. Bu natijalar Richards va Rodgers tomonidan ilgari surilgan kommunikativ yondashuv tamoyillari bilan mos keladi [7].

Shuningdek, o‘qish strategiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan matnlar o‘quvchilarning taxmin qilish, asosiy g‘oyani aniqlash va xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarini mustahkamladi. Natijada o‘qish kompetensiyasi nafaqat reseptiv, balki faol kognitiv jarayon sifatida shakllanganligi kuzatildi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, o‘qish kompetensiyasini samarali rivojlantirish jarayonida matn tanlash va matn tuzish mezonlariga ilmiy asoslangan yondashuv muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, lingvistik jihatdan o‘quvchilarning til darajasiga mos, mazmunan dolzarb va kommunikativ yo‘naltirilgan matnlardan foydalanish o‘qish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday matnlar o‘quvchilarning matnni idrok etish, asosiy g‘oyani aniqlash, xulosa chiqarish hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yosh va psixologik xususiyatlarga mos holda tanlangan va tuzilgan matnlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi hamda o‘quv jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Axborot yuklamasining me’yoriyligi va mantiqiy izchillik tamoyillariga amal qilingan matnlar esa o‘qish strategiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar matn bilan mustaqil ishlash, kontekst asosida ma’no chiqarish va o‘z fikrini asoslab berish malakalarini egallaydi.

Bundan tashqari, madaniy moslik va tolerantlik ruhida tuzilgan matnlar chet tilini o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qilib, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. O‘qish uchun mo‘ljallangan matnlarning boshqa nutq faoliyati turlari - tinglab tushunish, yozish va gapirish bilan integratsiyalashuvi esa o‘qish kompetensiyasining kompleks rivojlanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotda ilgari surilgan matn tanlash va matn tuzish mezonlari o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimni takomillashtirishga xizmat qiladi hamda ularni amaliyotga joriy etish umumiy til o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashri. -Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – B. 432.
2. Jalolov J.J., Ikromov J. Matn mutolaasi didaktikasi.-Xalq ta’limi jurnali. 1993. 1-son. B.15.
3. Saydaliyev S.S. Chet til o‘qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan: NamDU, 2000. – B. 210.

4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages. Cambridge: CUP, 2020.
5. Harmer J. How to Teach English. London: Longman, 2007. – P. 341.
6. Grabe W., Stoller F. Teaching and Researching Reading. London: Routledge, 2011. – P. 246.
7. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: CUP, 2014. – P. 236.
8. Todorov T. The Place of Style in the Structure of the text In: Literary Style. A symposium. L. n. 4, 1971. – P. 218.
9. Enkvist N. Linguistic Stylistics. The Hague, 1973, – p. 57.
10. Common European Framework of reference for language learning and teaching / Draft 1. - Strasbourg: Council of Europe, 1993. – P. 128.
11. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования М., 1981. – С. 334.